

Nodirbek PARDAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti, stajyor-o'qituvchisi
 E-mail: pardayevnodirbek4@mail.ru

O'zMU professori, g.f.d. Z.N.Tojiyeva taqrizi asosida

FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION OF SURKHONDARYO REGION

Annotation

The demographic composition of the population of a certain area and the formation of its employment situation is a historical process that is formed as a result of the natural conditions and economy of the area over a long period of time. In this article, the factors affecting the formation of employment of the population of Surkhondaryo region are briefly covered.

Key words: population, population size, employment, population density, labor resources, natural conditions, natural-geographical, economic, social factors, agriculture.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Демографический состав населения определенной территории и формирование занятости представляет собой исторический процесс, формирующийся в результате природных условий и экономики территории на протяжении длительного периода времени. В данной статье кратко освещены факторы, влияющие на формирование занятости населения Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: населения, численность населения, занятость, плотность населения, трудовые ресурсы, природные условия, природно-географические, экономические, социальные факторы, сельское хозяйство.

SURXONDARYO VILOYATI AHOLISI BANDLIGI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Muayyan hudud aholisi demografik tarkibi hamda uning bandlik holatining shakllanishi uzoq davrlar davomida hududning tabiiy sharoiti va xo'jaligi natijasida tarkib topadigan tarixiy jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati aholisi bandligi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tarmoqlarida bandligi qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlari: Aholi, aholi soni, bandlik, aholi zichligi, mehnat resurslari, tabiiy sharoit, tabiiy-geografik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar, qishloq xo'jaligi.

Kirish. So'nggi yillarda Respublikada yangi ish o'rinlarini yaratish, mavjud mehnat resurslaridan unumli foydalanish, aholi bandligini oshirishda hududiy xususiyatlarni e'tiborga olish, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda va bu borada muayyan natijalarga ham erishilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, Respublikada yuqori demografik salohiyatga ega bo'lgan Surxondaryo viloyatida aholi bandligi shakllanishining hududiy xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi omillarni hududiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholini ish bilan ta'minlash, uning bandligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Aholi va aholi bandligi masalalari hamda ushbu yo'nalish bo'yicha nazariy asoslarni o'rganish va yechimini topishda xorijda A.Smit, D.Rikardo, T.R.Maltus, A.Marshall, J.M.Keyns, A.Pigu, M.Fridman, B.Breev, V.Bulanov, B.Genkin, A.Kokina va boshqa olimlar mehnat resurslari, ularning shakllanishi hamda aholi bandligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. O'zbekistonda ham aholiga doir tadqiqotlar bilan bir qancha olimlar shug'ullanganlar. Xususan, Q.X.Abdurahmonov, X.Abulqosimov, M.Qoraxonov, M.R.Bo'riyeva, D.Mirsaidov, A.Xasanov, O.Ata-Mirzayev, Z.N.Tojiyeva, N.Yuldashev, L.Z.Ibragimov va boshqalar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda asosan aholining soni, dinamikasi, milliy hamda yosh-jins tarkibi, takror barpo bo'lishi, mehnat resurslari va aholining bandligi o'rganish bo'yicha nazariy-uslubiy jihatlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Aholi bandligi masalasi davlatlar uchun har vaqt muhim masalalardan hisoblanadi. Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda bandlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida aks ettirilgan. Masalan, G.S.Vechkanov va G.R.Vechkanovlar bandlikni ishlab chiqarish usuliga ko'ra insonlarning ish joyi bilan ta'minlanishi va xo'jalik faoliyatidagi ishtiroki natijasidagi munosabatlar tizimi, deb tavsiflagan.

Klassik iqtisodiy nazariyasining asoschisi hisoblangan Adam Smit ilk bor "ko'rinmas qo'l" g'oyasini olg'a surdi. Mazkur g'oya bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha iqtisodiy subyektlar erkin ravishda iqtisodiy qarorlarni qabul qilishlari kerak. Davlat iqtisodiyotga aralashmaydi va bozorlarda mukammal raqobat o'zidan-o'zi o'rnatiladi - deb, o'zining «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776-y.) nomidagi asarida keltirgan.

Mazkur yo'nalishda Respublikamizda M.Qoraxonovning fikrlarini keltirish o'rinlidir. M.Qoraxonovning fikriga ko'ra, "Iqtisodiyotning o'ta qo'loqligida aholining haddan tashqari o'sib ketishi, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimini topishni qiyinlashtiradi. Biroq, bir vaqtning o'zida barcha muammo va tashvishlarning sababi aholining tez o'sib ketishi emas, balki bandlik muammosi ham" [4] degan fikrlarini keltirib o'tish o'rinli.

Tahlil va natijalar. Aholi bandligining shakllanib hamda rivojlanib borishida tabiiy-geografik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, O'zbekiston Respublikasida aholi tabiiy ko'payishi yuqori bo'lgan Surxondaryo viloyati aholisi bandligining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish ahamiyatlidir. Surxondaryo viloyati Respublikamizning tog'li viloyatlaridan bo'lganligi sababli, viloyat aholisini bandligini ta'minlashda hududning geografik omillari va sharoitiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Har bir hududni o'zining ma'lum bir tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda, hududda yashovchi aholi o'zining faoliyatini yo'lga qo'yadi. Surxondaryo viloyati hududi ham o'zining tabiiy sharoiti jihatidan ham Respublikaning boshqa hududlaridan farq qiladi. Viloyat boshqa viloyatlarga nisbatan janubda joylashganligidan hamda iqlimining subtropik iqlimga to'g'ri kelganligidan ham boshqa viloyatlardan birgina qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvidan ham farqlanadi.

Surxondaryo viloyati aholisi bandlik darajasi o'zgarishiga viloyat hududining geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti o'z tasirini o'tkazadi. Surxondaryo viloyati aholisi qadimdan Surxon-Sherobod vodiylar qismida istiqomat qilib kelgan. Mamlakatimiz

aholisiga oid manbalarda keltirilishicha, Surxondaryo viloyati hududida Buxoro amirligi davrida aholi soni 167 ming kishini tashkil etgan bo'lib, har bir kvadrat kilometriga aholi zichligi 7,9 kishini tashkil etgan. Viloyat aholisi so'nggi yarim asr davomida juda tez ko'paydi. Hozirgi kunda viloyat aholisi soni 2821,9 ming (2023-yil) kishini tashkil etmoqda. Shu bilan birgalikda viloyat aholisi tug'ilish va tabiiy ko'payishi jihatidan ham respublikada oldingi o'rinlarda turadi. Bu esa rivojlanish darajasi past va aholi tabiiy ko'payishi yuqori bo'lgan viloyat hududlari rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini yanada rivojlantirish va eng muhimi viloyat aholisini bandligini ta'minlash, bugungi kunda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi bandligiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu - tabiiy sharoitdir. Qadimdan insonlar yashash qulay bo'lgan joylarda istiqomat qilib, so'ngra asta sekinlik bilan o'sha yerlarda boshqa sohalar bilan shug'ullanishi natijasida har xil xo'jalik tarmoqlari tarkib topgan. Surxondaryo viloyati aholisi ham qadimdan istiqomat qilib kelgan o'troq aholi hisoblanadi. Viloyat aholisi uning hududi bo'ylab bir tekis taqsimlanmagan. Buning asosiy sababi qilib esa viloyatning orografik xususiyatining murakkabligi, tumanlararo ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, transport vositalarining rivojlanishi holati, suv resurslarining mavjudligi va boshqalarni ko'rsatish mumkin [8].

Surxondaryo viloyati o'sish surati yuqoriligi bilan bir qatorda, demografik salohiyati bo'yicha respublikamizda yettinchi o'rinda turadi. 1989-yilda so'nggi bor o'tkazilgan aholi ro'yxatida aholi soni 1253,8 ming kishi bo'lgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022-yilga kelib bu raqamlar nisbati 2,01 martaga ko'paydi. Garchi demografik rivojlanish sur'ati so'nggi yillarda biroz kamaygan bo'lsa-da, Respublikamiza eng yuqori bo'lib qolmoqda. Aholi sonini bunday o'sib ko'payishi viloyatda yani ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash masalalarini zarur qilib qo'yadi. Aholi ish o'rinlarini yaratish uni joylashtirish masalalari esa geografiyaga bevosita bog'liq bo'lib, unda tabiiy sharoit va resurslar muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

Surxondaryo viloyati doimiy aholi sonining dinamikasi

Manba: Jadval Surxondaryo viloyati statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ma'muriy-hududiy birliklar nomi	Yillar				O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, (foizda)
	2020- yil (ming kishi)	Jami aholiga nisbatan (foizda)	2021- yil (ming kishi)	Jami aholiga nisbatan (foizda)	
Surxondaryo viloyati	2629,1	100	2 681,0	100	101,9
Termiz sh.	179,6	6,8	182,9	6,8	101,8
<i>tumanlar:</i>					
Oltinsoy	176,4	6,7	180,1	6,7	102,1
Angor	132,1	5,0	134,7	5,1	102,0
Bandixon	74,3	2,8	77,0	2,8	103,6
Boysun	115,4	4,3	117,5	4,3	101,8
Muzrabot	141,4	5,3	144,2	5,3	102,0
Denov	384,6	14,6	392,3	14,6	102,0
Jarqo'rg'on	217,8	8,2	222,1	8,2	102,0
Qumqo'rg'on	233,8	8,8	238,7	8,9	102,1
Qiziriq	114,1	4,3	115,9	4,3	101,6
Sariosiyo	209,3	7,9	213,1	7,9	101,8
Termiz	77,1	2,9	78,5	2,9	101,8
Uzun	171,4	6,5	173,9	6,6	101,5
Sherobod	193,3	7,3	197,4	7,3	102,1
Sho'rchi	208,5	7,9	212,7	7,9	102,0

Surxondaryo viloyati xo'jaligi mintaqaning geografik o'rni tabiiy sharoiti va resurslari, tarixiy rivojlanish xususiyatlari asosida shakllangan bo'lib, viloyat iqtisodiyoti koproq agrar yo'nalishga ega. Mazkur viloyat Respublika YaIMning 4,2 foizini, sanoatning 1,7 foizini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini 9,1 foizini, chakana savdo hajmining 6,4 va pullik xizmatlarining 4,2 foizini beradi. Bundan tashqari xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishda viloyat ulushi 2,4 foiz, kapital quyilmalarda 4,1 foiz, eksport hajmida 1,9 foiz va importda 8,2 foizni (2022 y) tashkil etadi [11]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, bu yerda asosan Respublika ahamiyatiga ega, qolgan sohalar esa viloyatda sust rivojlangan va aholining ham juda katta qismi qishloq xo'jaligida band aholidir. Bu esa o'z-o'zidan demografik salohiyati yuqori va sanoati o'sib borayotgan viloyatda ishlab chiqarish korxonlarini qurish va qishloq xo'jaligi sohalaridan boshqa sohalarini ham rivojlanishini ta'minlashni dolzarb masalalardan qilib qo'yimoqda. Buning asosiy sababi esa viloyatda yetishib chiqayotgan mehnat resurslarining ko'p qismi yoshlar ekanligi viloyatda aholi bandligi muammosini dolzarbligini yanada oshiradi. Surxondaryo viloyati aholisi bandligini shakllanishida undagi geografik omillar g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat hududi aholisi balandlik mintaqalari bo'yicha turlicha taqsimlangan. Viloyatning Termiz, Jarqo'rg'on, Angor, Qiziriq, Muzrabot tumanlari xususan qishloqlari barchasi dengiz sathidan 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashgan. Aksincha, Boysun, Sariosiyo va Uzun tumanlarining qishloqlari esa bunday balandlikkacha bo'lgan hududlarda birorta ham yo'q, ularning aksariyati tog'oldi va tog'li hududlarda joylashgan. Viloyatda faqat Oltinsoy tumani barcha balandliklar bo'yicha aholi punktlari joylashgan [7]. Ushbu relyef bilan bog'liq bo'lgan omillar aholi bandligiga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Viloyatda aholi bandligi ham shunga mos holatda shakllangan.

Surxondaryo viloyati hududini shimoliy tog' va tog'oldi hamda janubiy tekislik cho'l mintaqasiga bo'lish mumkin. Shimoliy qismida aholi asosan qishloq xo'jalik va bog'dorchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, aholining asosiy qismi bog'dorchilikda va qishloq xo'jaligida bandligi yuqori. Bundan tashqari, ushbu rayonlarda chorvachilik sohasi ham yaxshi rivojlangan. Viloyatda aholining oz qismi ishlab chiqarishda va qolgan qismi noishlab chiqarishda band aholidir. Tog' va tog'oldi rayonlarida relyef tuzilishi jihatidan bir xil bo'lmagani uchun bu yerda qishloq xo'jaligi ekin turlari ham bir-biridan farqlanadi. Bu yerlarda sug'orma dehqonchilik bilan bir qatorda lalmi dehqonchilik va yaylov chorvachiligigacha rivojlangandir. Viloyatning janubiy qismida esa asosan sug'orma dehqonchilik bilan chorvachilik yaxshi rivojlangan. Chunki, viloyat janubiy katta qismi cho'l o'rmida aholi punktlari ko'p bo'lgani bois, doimiy ravishda suv bilan ta'minlab turuvchi kanallar o'tkazilgan bo'lib, ularning qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishdagi ahamiyati ancha yuqoridir. Qolgan hududlarida mahsuldorligi kam bo'lgan yerlarda yaylov chorvachiligida qo'y, echki boqishga ixtisoslashgan. Aholi daromadining katta qismi aynan shu sohalaridan hisoblanadi. Biroq, ushbu ikki mintaqada ham qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohalarini ekstensiv rivojlangan bo'lib, aholi daromadlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Surxondaryo viloyati aholisining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi aholi bandligiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil bo'lib hisoblanadi. Aholi tog'oldi hududlarda va suv resurslariga boy qismlarida juda zich joylashgan. Mehnat resursalari ham juda ko'pchilikni tashkil etadi. Aksincha, maydoni juda katta keng bo'lgan janubiy rayonlarda esa aholi siyrak joylashgan. Masalan: Aholi soni bo'yicha viloyatda birinchi o'rinda turuvchi Denov tumanida aholi zichligi har bir km² hududga 468 kishiga to'g'ri kelgan holda, Boysun tumanida esa aholi zichligi eng past ko'rsatkichga ega bo'lib, mazkur tumanning har bir km² hududga 33 kishini (2022 y.) tashkil etadi. Aholi notekis taqsimlanganligi avvalo, relyefga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda suv bilan ta'minlanganlik darajasi ham o'zining kata ta'sirini ko'rsatadi. Suv resurslari viloyat bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Suv bilan yaxshi taminlangan tumanlarga Sariosiyo, Denov, Sho'rchi, Uzun hamda Oltinsoy tumanlarini kiritsak bo'ladi. Biroq, ushbu tumalarning o'zida ham suv bilan yaxshi ta'minlanmagan hududlar mavjud. Bu esa o'z-o'zidan aholi joylashuviga o'z tasirini o'tkazmasdan qolmaydi. Aholi zichligidagi tafovutlar ham viloyatda aholi bandligini ta'minlashda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Surxondaryo viloyati aholisi bandligini oshirishga xizmat qiluvchi Respublikamiz boshqa hududlarida uchramaydigan bir qator resurslar mavjudligi bilan ham ajralib turadi. Bunday resurslar qatoriga birinchi navbatda agroiklimiy resurslari Respublikaning boshqa hududlariga qaraganda boy darajada ekanligi, xususan viloyat qishloq xo'jaligidan bir yilda uch martagacha hosil olish imkonini beradi. Viloyatda Respublikamiz boshqa hududlariga nisbatan bog'dorchilik sohasida imkoniyati keng bo'lgan hududlari ham mavjud bo'lib, misol qilib Sherobod hududida anorning sifatli navlarini yetishtirish imkonini beradi. Anor yetishtirish bo'yicha ushbu hudud hozirda o'z mavqeyiga ega bo'lib, buning asosiy sababi issiqlikning yetarli darajada ekanligi bilan xarakterlanadi [7].

Qishloq xo'jaligida band aholisini aksariyat qismi aynan mana shu soha bilan band hisoblanadi. Chunki anor suvni kam talab qiladigan, issiqsevar meva bo'lib, aynan mana shu jihatining o'zi ham hududda shu soha rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu imkoniyatlarga tumanga qo'shni bo'lgan Muzrabod, Qiziriq hamda Angor tumanlarida ham mana shunday anor bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud. Shu hududlarda ham anorzorlar maydonini kengaytirish hisobiga ham hududda aholi bandligini oshirish imkoniyati mavjuddir. Viloyatning shimoliy rayonlari birmuncha salqinroq bo'lib, ushbu hududlar geografik sharoiti hududlarda uzum va olma yetishtirish imkonini beradi. Ayniqsa viloyatning tog'li hududi bo'lmish Sariosiyo tumanida olma bog'larini ko'paytirish uchun hududda yetarli agroiklimiy resurslarga boy hudud hisoblanadi. Bog'dorchilik, xususan uzum yetishtirishda Sariosiyo, Denov, Oltinsoy tumanlari viloyatda oldingi o'rinlarni egallaydi. Uzum yetishtirish, asosan suv kam bo'lgan adir mintaqasida ko'proq bo'lganligi uchun ushbu sohani rivojlantirish imkoniyati tumanlarda yetarli resurs salohiyati mavjud. Bundan tashqari viloyat boshqa hududlardan ko'ra issiq bo'lganligi uchun viloyat hududida yetishtirilgan qishloq xo'jalik va bog'dorchilik mahsulotlari Respublikamizni boshqa hududlaridan erta pishishi, viloyatning bu borada eksport salohiyatini yanada orttiradi. Aholi daromadlarini ko'proq bo'lishiga olib keladi. Viloyatda juda ko'p miqdorda bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirilishini inobatga olgan holda mevani qayta ishlaydigan meva sharbati qiladigan korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu korxonalarni biri Termiz shahri hududiga, ikkinchisini Denov tuman hududiga joylashtirish yaxshi natija beradi. Chunki, xomashyoni yetkazib berishda qolgan hududlarga nisbatan imkoniyati katta va qayta ishlangan mahsulotni eksport qilish va tarqatishda ham markaz rolini bajaralishi bilan bir qatorda mehnat resurslarining yetarli darajada ekanligi ushbu hududlarda korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish uchun qulay geografik o'rin, deb aytish mumkin.

Viloyat qishloq xo'jaligi sohasidan tashqari boy tabiat ne'matlariga ham ega. Bunday resurslar qatoriga Oltinsoy hududida joylashgan Xo'jaipok ota, Sariosiyodagi Sangardak sharsharasi, Sherobod hududida Xo'jamayxona, Boysun tumanidagi Omonxona va shunga o'xshash viloyatda juda ko'plab tabiiy rekreatsion resurslar mavjuddir. Mavjud resurslardan samarali foydalangan holda hududlarda turizm va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali viloyat aholisi bandligini oshirish imkoniyati mavjud. To'g'ri hozirgi kunda viloyat hududidagi ushbu obyektlarda turizm qaysidir ma'noda yo'lga qo'yilgan. Biroq, bu imkoniyatdan foydalanish darajasi yuqori emas. Chunki, viloyat hududida joylashgan birgina Sangardak sharsharasiga nafaqat viloyat aholisi balki, Respublikamizning turli hududlaridan mehmonlar kelishadi. Ayniqsa, yoz faslida ushbu hududda mehmonlar soni juda ham ortib ketadi. Biroq, ushbu hududda mehmonlarga xizmat ko'rsatish sohasi deyarli rivojlanmagan. Mehmonlar uchun mehmonxonalar mavjud emas. Mazkur turizm obyektida mehmonlar soni yil sayin ortib bormoqda. Viloyatning o'zidan tashrif buyuradigan mehmonlar ham hozirgi kunda ikki uch kunga dam olishni rejalashtirib borishayotganligi ham mazkur xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirishni talab etadi. Shuni e'tiborga olgan holda hududda aholi uy mehmonxonalarini tashkil etish, xizmat ko'rsatish obyektlar sonini ko'paytirish hudud rivojlanishiga ta'sir qilishi bilan bir qatorda aholi bandligini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rmda shuni aytish joizki, viloyat o'zining mehnat resurslari va tabiiy sharoitiga yetarli darajada boy hisoblanadi. Undan oqilona foydalanish va aholi bandligini oshirish ishlarini tadriziy davom ettirish viloyat uchun muhim ahamiyatga ega. Viloyatda hozirgi kunda ko'proq imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhimdir. Bundan tashqari, tomorqa xo'jaliklari faoliyatini yanada oshirish, qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohaslarini intensiv tarzda rivojlanishini yo'lga qo'yish viloyat daromadlarini oshishiga va aholi bandligini ta'minlashda yaxshi natijalar beradi. Tabiiy sharoit va mehnat resurslarining yetarli darajada ekanligi, yuqoridagi aytib o'tilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF – 158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF -4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
4. Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholi ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2011. - 290 b.
5. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва Демография асослари. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Тафаккур, 2011. – 160 б.
6. Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иктисодий географик хусусиятлари – г.ф.д. диссертацияси автореферати – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2022. – 63 б.
7. Sattorov A.U. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 155 b.

8. Tojiyeva Z.N., Ibragimov L.Z. O'zbekistonda mehnat resurslari shakllanishi va aholi bandligi muammolari // SamDU Ilmий ахбаротномаси, №3. Самарқанд, 2021. – Б.137.
9. Tojiyeva Z.N., Ibragimov L.Z. Labour market and employment in Uzbekistan // In Geografický časopis, 2021. №4. - P. 359-374. <https://doi.org/10.31577/geogrcas.2021.73.4.19>.
10. Тожиёва З.Н., Ибрагимов Л. Ўзбекистонда аҳоли бандлиги ва унинг демографик асослари // Илмий-тадқиқотлар Ахборотномаси. Научный Вестник СамГУ. №3. – Самарқанд, 2013.– Б. 93-96.
11. surxon.stat.uz